

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, respublikada amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlarning barchasi mamlakat makroiqtisodiy barqaror-

ligining oshishi bilan birga, aholi turmush farovonligiga ijobiy ta'sir etmoqda va ularning davom ettirilishini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреев А. Основы региональной экономики: учебник для вузов. – М.: Кно Рус, 2012. – 334 с.
2. Положенцева Ю.С., Клевцова М.Г. Трансформация развития промышленного комплекса в условиях цифровой экономики. // Вестник ГУУ. 2021. № 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-razvitiya-promyshlennogo-kompleksa-v-usloviyah-tsifrovoy-ekonomiki>.
3. Ветрова Елена Николаевна, Лапочкина Людмила Викторовна. Трансформация промышленного развития на современном этапе развития экономики. // π-Economy. 2016. № 3 (245). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-promyshlennogo-razvitiya-na-sovremennom-etape-razvitiya-ekonomiki>.
4. Курбонов Ж.Қ. Саноатни модернизациялаш Ўзбекистон иқтисодиётининг рақобатдошлигини ошириш воситаси сифатида. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий-электрон журнали. 2-сон, март-апрель, 2017 йил.
5. Махмудов Н.М., Хомидов С.О., Авазов Н.Р. Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида саноат тармоқларини ривожлантириш. Монография. – Т.: ТДИУ, 2020 й. – 235 б.
6. Ортиқов А. Саноат иқтисоди. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2009. – 236 б.
7. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1У-го Форума экономистов. / Отв. ред. М.П.Нарзикулов. – Т.: Vaktria Press, 2012. С.
8. Махмудов Э.Х., Ортиқов А., Каримов Ф. Корхона – иқтисодиётнинг асосий бўғини. // Ҳамкор. 2010 йил 7 февраль.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-111-sonli farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>
11. Абдужалилова Гузал Сайдиллаевна. (2023). Ўзбекистон Республикаси саноат корхоналаридаги иқтисодий ривожланиш ҳолатининг иқтисодий-статистик таҳлили. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(5), 211-220. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/1910>
12. Исроилов Д. Ўзбекистон Республикасида инвестиция лойиҳалари ёрдамида саноат соҳасининг ҳолати ва ривожлантириш тенденциялари. // Science and innovation in the education system. 2024. Т. 3. №. 4. С. 94-101.
13. <https://siat.stat.uz/reports-filed/1870/line-data>



MARKAZIY OSIYO HUDUDIDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Saidov Mash'al Samadovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
professori

Umarova Irodaxon Nuraliyevna
Toshkent arxitektura va qurilish
universiteti tadqiqotchisi

 https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a34

Annotatsiya. Markaziy Osiyo hududidagi mamlakatlarda qayta tiklanadigan energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali elektr energiyasiga bo'lgan talabni ta'minlash, elektr energiyasini ishlab chiqarishda foydalaniladigan texnologiyalarni yangi zamonaviy texnologiyalarga o'zgartirish, elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni ko'paytirish, elektr energetika sohasida raqobat muhitini rivojlantirish, elektr energetika tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish masalasi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: elektr energetika, elektr energiyasini ishlab chiqarish, tabiiy monopoliya, raqobat muhiti, qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya resurslari, energiya obyektlari, issiqlik elektr stansiyasi, issiqlik elektr markazlari, muqobil energiya manbalari, gidroelektrstansiyasi, quyosh elektr stansiyasi, shamol elektr stansiyasi.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ НА ТЕРРИТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Саидов Машъал Самадович

*Профессор Ташкентского государственного
экономического университета*

Умарова Иродахон Нуралиевна

*Исследовательница Ташкентского архитектурно-
строительного университета*

Аннотация. За счет повышения эффективности использования возобновляемых энергетических ресурсов в странах среднеазиатского региона, обеспечения спроса на электроэнергию, преобразования технологий, используемых при производстве электроэнергии, в новые современные технологии, увеличения использования возобновляемых источников энергии при производстве электроэнергии, развития конкурентной среды в электроэнергетике, даны предложения и рекомендации по вопросу разработки долгосрочных стратегий развития электроэнергетической отрасли.

Ключевые слова: электроэнергетика, производство электроэнергии, естественная монополия, конкурентная среда, возобновляемые источники энергии, энергоресурсы, энергетические объекты, тепловая электростанция, тепловые электростанции, альтернативные источники энергии, гидроэлектростанция, солнечная электростанция, ветряная электростанция.

IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE USE OF RENEWABLE ENERGY RESOURCES IN THE TERRITORY OF CENTRAL ASIA

Saidov Mashal Samadovich

Professor of the Tashkent State University of Economics

Umarova Irodaxon Nuraliyevna

Researcher Tashkent University of Architecture and Civil Engineering

Annotation. By increasing the efficiency of the use of renewable energy resources in countries in the territory of Central Asia, ensuring the demand for electricity, changing the technologies used in the production of electricity to new modern technologies, increasing the use of renewable energy sources in the production of electricity, developing a competitive environment in the field of electricity, proposals and recommendations have been made on the issue of developing long-term strategies for the development of the electric power sector.

Key words: electricity, power generation, natural monopoly, competitive environment, renewable energy sources, energy resources, energy facilities, thermal power plant, thermal power centers, alternative energy sources, hydroelectric power plant, solar power plant, wind power plant.

Kirish. Bugun mintaqadagi davlatlarning har biri aholini, sanoat korxonalarini uzluksiz elektr quvvati bilan ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelyapti. Markaziy Osiyo mintaqasi, bir tarafdin, energetika resurslariga boy, ammo boshqa tomondan, o'sha energetika resurslari teng taqsimlanmagan yoki ular turli-tuman. Suv-energetika masalalari hal etilmagani muvaffaqiyatli integratsiya yo'lida to'siq bo'lmoqda. Masalan, 2022-yil yanvar oyi oxirida Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'izistonning bir qator viloyatlarida elektr quvvati o'chib qoldi va bu butun boshli energetika halqasidagi ta'minot uzilishlariga sabab bo'ldi. Muammoni tez orada bartaraf etishga muvaffaq bo'lindi, ammo u mintaqamizdagi hamma narsa o'zaro bog'liq ekanini ko'rsatib berdi. Muammo shundaki, Markaziy Osiyoning barcha

mamlakatlaridagi elektr energetikasi tizimi juda eskirib ketgan.

Ammo mintaqamiz gidroenergetika sohasini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Ya'ni davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, Tojikiston bilan Zarafshon daryosida GES qurish loyihasi birgalikda ishlab chiqilmoqda, Qirg'izistonda Qambarota GES-1 loyihasini amalga oshirish masalasi faol hal etilmoqda. Xususan, 2022-yil 6-yanvar kuni Bishkekda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston energetika idoralarining rahbarlari «Qambarota GES-1 qurilishi» loyihasini amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi»ni imzoladilar. Imzolangan «Yo'l xaritasi» doirasida tomonlar loyihani amalga oshirishning asosiy shartlarini kelishib oldi va elektr stansiyasini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha kutilayotgan chora-tadbirlarni belgilab oldi. «Qambarota GES-1»

Qirg'izistondagi eng yirik elektr stansiyasiga aylanishi kerak. U Markaziy Osiyo mamlakatlarini elektr energiyasi bilan ta'minlaydi va mintaqaning suv ta'minotini barqarorlashtiradi. Bo'lg'usi GESning quvvati 1860 MVtni tashkil qiladi. GES suv omborining hajmi 5,4 milliard kub metrni tashkil qiladi. Stansiya yiliga o'rtacha 5,6 milliard kVt/soat elektr energiyasini ishlab chiqaradi.

Energetika sohasini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan oxirgi yillarda bir qancha farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 2019-yil 1-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [1], 2022-yil 9-sentabrdagi «Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi [2] farmonlar, 2019-yil 27-martdagi «O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi [3] qaror qabul qilindi. Mazkur farmon va qarorlar energetika tarmog'ida raqobat muhitini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish, elektr energiyani ishlab chiqarish, magistral liniyalar orqali uzatish va hududiy elektr tarmoqlari orqali yetkazib berish sohasidagi faoliyatning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Boz ustiga, bozorda ayrim korxonalar va tashkilotlar uchun asossiz yengilliklar va qo'shimcha imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechishga, tabiiy monopoliya sohalari bo'yicha tarkibiy-tuzilmaviy o'zgartirishlar kiritish orqali ularga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar-ni xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish, davlat tashkilotlari tomonidan korxonalar va tashkilotlar faoliyatini asossiz tekshirish amaliyotidan va bozorda raqobatni cheklashga doir huquqiy me'yorlardan voz kechish masalalariga ham alohida e'tibor qarantilyapti.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida Markaziy Osiyo suv va energetika boyliklaridan o'zaro manfaatli asosda foydalanish, gidroenergetika loyihalarida samarali hamkorlik aloqalari mexanizmlari ishlab chiqildi hamda birgalikda ishtirok etish borasida yangi GES qurilishiga kelishib olindi. Ta'kidlash joizki, mazkur loyiha gidroenergetika sohasida ikki davlat o'rtasidagi yirik istiqbolli loyihadir. Shu jihatdan mazkur Yovon gidroelektr stansiyasi energetika sohasidagi ikki tomonlama hamkorlikda birinchi yirik loyiha bo'ladi. 140 megavatt quvvatga ega zamonaviy stansiya mamlakatlar energetik xavfsizligi, suv va qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ikki mamlakatning mas'ullari

tomonidan Zarafshon daryosi havzasida 2 ta GESni qurish va undan foydalanishni texnik-iqtisodiy baholash bo'yicha o'zaro kelishuvga erishilgan. Mazkur kelishuvga asosan Tojikistonning Zarafshon daryosi havzasida gidroelektr stansiyalarining qurilishi ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda yiliga o'rtacha 832 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi, quvvati 140 megavattga va prognoz qiymati 282 million dollarga teng Yovon gidroelektr stansiyasini qurish ishlari bajariladi. Mazkur loyiha sarflangan mablag'larni 15 yilda qoplashi hamda 40-50 yil davomida uzluksiz ishlash imkoniyatiga ega.

Ikkinchi bosqichda yiliga o'rtacha 560 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi, quvvati 135 megavattga va prognoz qiymati 270 million dollarga teng Tojikistonda qurilayotgan Fandaryo gidroelektr stansiyasini qurish imkoniyati o'rganib chiqilmoqda. Mazkur loyiha sarflangan mablag'larni 20 yilda qoplash hamda 40-50 yil davomida uzluksiz ishlash imkoniyatiga ega. Mazkur loyihalarning yillik umumiy ishlab chiqarishi hajmi 1400 million kVt.soatni tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida, 600 mingdan ortiq oilaning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkonini beradi. Yangi GESlarning qurilishi doirasida 3 mingga yaqin mavsumiy, ishga tushirilishi natijasida esa 200 dan ortiq doimiy ish o'rinlari yaratiladi. Loyihalarni to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan loyihaviy moliyalashtirish usuli bo'yicha moliyalashtirish rejalashtirilgan. Qurilgan gidroelektrostansiyalar faqat O'zbekiston ehtiyojlari uchun 1400 mln. kVt.s ekologik sof elektr energiya ishlab chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Energiya manbalarini diversifikatsiya qilmasdan, muqobil energetika sohasiga investitsiya va texnologiyalarni jalb etmasdan va "yashil" vodorodni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymasdan turib, mintaqani barqaror rivojlantirish mumkin emasligi ayon bo'lib bormoqda. Shu maqsadda mamlakatimizda energetika samaradorligini oshirish, tejamkorlik bo'yicha ishlanmalarni joriy etish, energiyani qayta tiklanuvchi va muqobil turlarini ishlab chiqarishga joriy etishga asosiy vazifa sifatida qaralmoqda.

Butun dunyoda elektr energetika ishlab chiqarishda, asosan, qayta tiklanmaydigan resurslardan foydalanib kelinmoqda. Natijada bu dunyo mamlakatlarining ko'plab hududlarida juda yuqori darajada havo, suv va tuproqning zararlanishiga olib kelmoqda. Bu esa dunyo bo'yicha atrof-muhitning insonlar salomatligi va biologik

xilma-xillikka zarar yetkazadigan ekologik muvozanatning buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlatishdan asosiy maqsad qimmatli resurslar zaxirasini kamaytirmaslik, atrof-muhitning issiq-xona gazlari bilan ifloslanishi va tuzlarning dunyo bo'ylab ko'chib yurishini cheklash, yer yuzasining yemirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik hamda energiyani behuda ishlab chiqarmaslikdir [4].

Iqtisodiyotning elektr energetika tarmog'i qolgan barcha tarmoq va sohalarning rivojlanishi uchun asosiy vazifani bajarib beradi. Mamlakat iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun: birinchidan, energetika sanoati mustaqil bo'lishi; ikkinchidan, energiya resurslari zaxiralarga ega bo'lishi; uchinchidan, energetika sanoati zamonaviy boshqaruvga asoslangan bo'lishi; to'rtinchidan, soha zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lishi va undan samarali foydalanish darajasi yuqori bo'lishi zarur. Energetika sanoatining mustaqil bo'lishi – iste'molchilarning elektr energiyaga bo'lgan talabi har doim mamlakat ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta'minlanishi kerak [5].

Energiya resurslarining barcha turlari quyosh energiyasini tabiiy o'zgartirish natijasidir. Ko'mir, neft, tabiiy gaz, torf, yonuvchi tog' jinslari va o'tinlar o'simliklar tomonidan olingan va o'zgartirilgan quyoshning nurli energiyasi zaxiralardir [6].

Dunyo mamlakatlari elektr energiya ishlab chiqarish bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'linadi: **birinchi guruh** mamlakatlariga, asosan, issiqlik elektr stansiyalari orqali elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi – Rossiya Federatsiyasi, AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlari kiradi. Ular tomonidan elektr energiya ishlab chiqarishda, asosan, tabiiy gaz, mazut va ko'mirdan foydalanishadi; **ikkinchi guruh** mamlakatlariga Xitoy, Avstraliya, Meksika, Ruminiya, Gollandiya va Polsha davlatlari kiradi. Ular tomonidan elektr energiya ishlab chiqarishda, asosan, tabiiy gazdan foydalanishadi; **uchinchi guruh** mamlakatlariga Gonduras, Kolumbiya, Keniya, Braziliya, Yangi Zelandiya, Avstriya va Paragvay davlatlari kiradi. Ular, asosan, elektr energiyani GES (gidroelektrostansiyalar)lari orqali ishlab chiqarishadi, **to'rtinchi guruh** mamlakatlariga Yaponiya, Fransiya va Belgiya davlatlari kiradi. Ular elektr energiyani asosan atom energetikasidan foydalangan holda ishlab chiqaradilar.

Dunyo mamlakatlarida energiya resurslarining notekis taqsimlanganli sababli hozirgi kunda jahonda energiya manbalariga bo'lgan global taqchillik yuzaga kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda tabiiy monopoliyalar sohalari mamlakatlarning asosiy

infratuzilmalarini tashkil etganligi sababli, jumladan, elektr energetika sohasini tartibga solish va boshqarish dolzarb ahamiyatga ega [7].

Bugungi kunda dunyoda elektr energiyani ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy, AQSh, Rossiya Federatsiyasi va Braziliya davlatlari yetakchilik qiladi.

Har bir energiya manbayini qazib olishda, qayta ishlash va iste'mol qilishda muammolar mavjud. Butun dunyoda energetik xavfsizlik muammosi turgan paytda, jahon bozoridagi raqobatning kuchayishi, qoida bo'yicha, ayrim bir hududlarda, davlatlarda energetik xavfsizlikka tahdid solishi mumkin [8].

Sanoatlashish jarayonida global energiyaga talabning oshib borishi sharoitida qayta tiklanuvchi energiya manbalarisiz barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi. AQSh Energiya departamenti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda energiya iste'moli 2012-yilda 13,8 mlrd. t.n.e.ga teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012-2040-yillarda o'rtacha yillik 1,4 foizga o'sib, 2040-yilda 20,5 mlrd. t.n.e.ga yetishi prognoz qilinmoqda [9].

Elektr energiyani iste'mol qilishning ko'rsatilgan darajasi samarali iqtisodiy siyosat markazi tomonidan ishlab chiqilgan sanoat rivojlanishi strategiyasiga mos keladi. Yetakchi mamlakatlar tajribasiga ko'ra, O'zbekistonda sanoat ulushining 20 foizdan 35-45 foizgacha ortishi mo'ljallangan [10].

Energiya iste'moli tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalari jadal sur'atlarda oshib boradi. Dunyoda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iste'moli 2012-2040-yillarda juda tez o'sib, yillik o'rtacha 2,6 foizni tashkil qiladi [11].

Neft, tabiiy gaz, ko'mir va uran kabi qazib olinadigan yoqilg'i turlari, ayni paytda, jahon energetika balansining negizini tashkil etadi va yaqin kelajakda ham shunday bo'lib qoladi. Vaholanki, ushbu yoqilg'ilarning resurslari ularga ishlov berish hamda foydalanilishi sababli tobora kamayib bormoqda. Energiya resurslaridan hozirgi foydalanish miqdori darajasida jahonda neft zaxirasi 45-50, tabiiy gaz 70-75, toshko'mir 165-170, qo'ng'ir ko'mir 450-500 yilga va yadro yoqilg'isi esa nisbatan ko'proq yillarga yetadi [12].

Dunyo tajribasida muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanish zarurati elektr energiyaga bo'lgan talabning tez o'sishi bilan belgilanadi, bu 2030-yilga nisbatan 2010-yil bilan solishtirilganda, 1,5 barobar, ya'ni 2050-yilga borib, 3 marta ko'payadi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy sohalardan biri elektr energetikasi sohasi hisoblanadi. Davlatning istiqbolli rivojlanishi har

doim uning energiya resurslari va elektr energiyasini ishlab chiqarish salohiyatiga qarab baholarnadi [13].

Elektr energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya manbalarining ustunlik tomoni, ulardan uglevodorod resurslarining yuzaga kelishi, ya'ni birato'la yoqib qo'ya qolmasdan, ulardan neft-kimyano sanoatida xomashyo sifatida foydalanish imkoniyatining mavjudligi. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan hamda respublikaning olis va uzoq hududlariga joylashgan aholi yashash joylarida foydalanib, iqtisodiy samaraga erishish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Markaziy Osiyo hududida qayta tiklanadigan energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Dunyo miqyosida olib qaraganda ham elektr energiya taqchilligi jiddiy muammoga aylanyapti desak, yanglishmagan bo'lamiz. Albatta, bu kabi muammolarni bartaraf etish yo'llari har bir davlatning ichki imkoniyatlariga bog'liq. Xususan, respublikamizda ham mana shunday muammolarni yechish bo'yicha o'ziga xos usullar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, elektr energiyasini tejashning muqobil varianti

quyosh panellaridan, suv, issiqlik elektr stansiyalari energiyasidan foydalanishdir. O'zbekistonda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining qariyb 85 foizi gazda ishlovchi issiqlik elektr stansiyalari hissasiga to'g'ri keladi. Qolgani qayta tiklanuvchi energiya manbalari – GESlar va quyosh fotoelektr stansiyalari tomonidan yetkazib beriladi. Joriy yil oxirigacha ular safiga shamol elektr stansiyasi qo'shilishi kutilyapti. Umuman olganda, 2026-yilga borib, mamlakatda hosil qilinadigan elektr quvvatining 30 foizini "yashil energiya" tashkil etishi rejalashtirilgan. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tahlillariga ko'ra, O'zbekistondagi daryo oqimlarining nazariy gidroenergetika salohiyati yiliga 88,5 milliard, texnik gidroenergetika salohiyati esa 27,4 milliard kilovatt soatni tashkil etadi. Hozirda ushbu imkoniyatlarning to'rtidan biridan foydalanilmoqda. 2022-yilda jami elektr energiyasining 9 foizi va amaldagi quvvatlarning qariyb 12,9 foizi GESlar tomonidan ishlab chiqarilgan.

Prezidentimizning 2021-yil 10-dekabrda «Gidroenergetikani yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosi doirasida xususiy sektor ishtirokida quvvati 125 megavatt, yillik o'rtacha ishlab chiqarishi 675 million kilovatt soat bo'lgan 250 ta mikro GES loyihasining manzilli ro'yxati shakllantirilgan. Bu jarayonda ham ularning geografik joylashuvi, suv oqimlarining barqarorligi kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi (1-jadval).

1-jadval

Gidroenergetikani yanada rivojlantirish va gidrosalohiyatdan foydalanish darajasini oshirishning 2023-2030-yillarda yangilangan maqsadli ko'rsatkichlari [14]

T/r	Nomi	2022-yil yakuni bo'yicha ishlab chiqarish quvvati (amalda)	Ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirish prognozi							2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	
			2023-yil	2024-yil	2025-yil	2027-yil	2028-yil	2029-yil	2030-yil	2027-yil	2030-yil
	Jami:	2 072,9	2 273,0	2 386,5	2 576,8	3 122,8	4 196,3	4 488,3	4 999,2	150,6	241,2
I.	«O'zbekgidroenergo» AJning ishlab chiqarish quvvatlari	2 072,9	2 253,9	2 330,8	2 494,8	2 952,0	4 025,5	4 317,5	4 828,4	142,4	232,9
	<i>shu jumladan, DXSh loyihalari</i>				19,0	216,5	416,5	444,5			
II.	Xususiy sektor ishtirokidagi loyihalar bo'yicha		19,1	55,7	82,0	170,8	170,8	170,8	170,8		

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 31-martdagi «Gidroenergetika sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [14] qarorida belgilangan vazifalar ham aholini elektr energiya bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Unga muvofiq, 2023-2030-yillarga mo'ljallangan gidroenergetikani yanada rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Mazkur dasturga qo'shimcha istiqbolli loyihalar kiritilishi hisobiga 2030-yilga borib, hosil qilinishi belgilangan 3 ming 416 megavatt elektr quvvati hajmi qariyb 5 ming megavattga yetkaziladi. Hududlar kesimida olganda, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida umumiy quvvati 876 megavatt bo'lgan Yuqori Pskom, Qorong'ito'g'ay,

Toldiqsoy GESlari, Oygain gidroelektrostansiyalari kaskadi hamda Yuqori Pskom gidroto'plash elektr stansiyasi, Namangan viloyati Norin daryosida umumiy quvvati 225 megavatt bo'lgan Norin, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida umumiy quvvati 264 megavattlik Yuqori To'palang GESlar kaskadini qurish mo'ljallanmoqda. 2023-2030-yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish va mavjud gidro salohiyatdan foydalanish darajasini oshirish, yangi quvvatlarni yaratish va mavjudlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan 47 ta investitsiyaviy loyiha hamda 2023-2025-yillarda kooperatsiya asosida mahalliyashtirish uchun taklif etilayotgan asbob-uskunalar, butlov-

chi va ehtiyot qismlarning ro'yxati ham tasdiqlandi (2-jadval). Joriy yilda «O'zbekgidroenergo» AJ tomonidan quvvati 196,8 megavatt bo'lgan 7 ta katta loyiha amalga oshiriladi. Yillik ishlab chiqarish quvvati 556,2 million kilovatt soat bo'lgan mazkur loyihalar ijrosi ta'minlanishi natijasida 190 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Dasturga muvofiq, 2030-yilga borib sohada davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida joriy etilgan loyihalar quvvatini 445 megavattga yetkazish hamda bu maqsadlar uchun 831 million dollar xorijiy investitsiya jalb etilishi borasida amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu umumiy quvvati 46 megavatt bo'lgan 5 ta GESni ishga tushirishni nazarda tutadi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarni hamda boshqa xorijiy kreditlarni jalb etish rejalashtirilgan gidroenergetika sohasidagi istiqbolli loyihalari [14]

T/r	Loyihalar nomi	Loyiha quvvati (MVt)	Yillik o'rtacha ishlab chiqarish (mln. kVt/soat)	Amalga oshirish muddati
JAMI:		1 365,0	4 330,7	
1.	Pskom daryosida Yuqori Pskom GES qurilishi	120	270	2024-2028-yy.
2.	Pskom daryosida Yuqori Pskom gidroto'plash stansiyasi (GAES) qurilishi	200	216	2025-2029-yy.
3.	Pskom daryosida Toldiqsoy GES qurilishi	170	515	2024-2028-yy.
4.	Pskom daryosida Qorong'ito'qay GES qurilishi	170	485	2024-2028-yy.
5.	Pskom daryosida Oygain GESlar kaskadi qurilishi	216	649	2024-2028-yy.
6.	Norin daryosida Norin GESlar kaskadi qurilishi	225	1125	2024-2028-yy.
7.	Surxondaryo viloyatida Yuqori To'palang GESlar kaskadi qurilishi (shu jumladan, Mizot va Kshtut GESlari qurilishi loyihalari)	264	1071	2024-2028-yy.

Mamlakatimizning turli hududlarida korxonalar va tashkilotlar, muassasalar quyosh panellari o'rnatishga kirishdi. Buning afzallik tomonlari ko'p. Masalan, biror-bir tashkilotning bir yillik elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji 500 ming kilovattni tashkil qilsa, quyosh panellarini o'rnatish natijasida mana shu ehtiyoj 50 foizga qisqaradi. Ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi «2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [16] qarori bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qarorga ko'ra, 2023-yilda umumiy quvvati 4300 MVt bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishga tushiriladi. Jumladan, 2100 MVt – yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari, 1200 MVt – ijtimoiy soha obyektlari, xo'jalik subyektlarining bino va inshootlari hamda xonadonlarda o'rnatiladigan quyosh panellari, 550 MVt – tadbir-

korlar tomonidan barpo etiladigan kichik fotoelektr stansiyalari ishga tushiriladi. Shuningdek, 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik asosida 27 ta yirik quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalari quriladi. 20 mingta ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'rnatiladi. Jami 11 ming nafar tadbirkorning bino va inshootlarida quyosh panellari o'rnatiladi hamda kichik fotoelektr stansiyalari quriladi. 37 ming aholi xonadonlarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'rnatiladi. Foydalanishga topshiriladigan 765 ta ko'p qavatli uylar qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta'minlanadi. Hududlarda 103 ta kichik va mikro gidroelektrostansiyalar barpo etiladi. 5 407 ta ijtimoiy soha obyektlari ko'mir bilan isitiladi. 2023-yil 1-apreldan respublika hududlarida aholi xonadonlariga kichik quvvatli (umumiy quvvati 50 kVt gacha) quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish bo'yicha «Quyoshli xonadon» dasturini amalga oshirish boshlandi. Dastur doirasida aholi tomonidan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan ortiqcha elektr energiyasining har bir kilovatt soatiga 1 000 so'mdan subsidiya

ajratilyapti. Qarorga ko'ra, shuningdek, ijtimoiy soha obyektlari, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning bino va inshootlarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish va ekspluatatsiya qilish

bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «Yashil energiya» kompaniyasi tashkil etildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyat darajasi qanday holatda ekanligi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi elektr stansiyalariga o'rnatilgan quvvat (MVt) [15]

Elektr stansiyasining turi	2010-yil	2012-yil	2014-yil	2016-yil	2018-yil	2020-yil	2022-yil
O'zbekiston Respublikasi	12555,4	12580,9	13036,0	14102,1	14191,4	16643,0	17658,9
Issiqlik stansiyalari (IS) va issiqlik elektr stansiyalari (IES)	10762,5	10758,7	11165,0	12221,7	12276,5	14620,4	15232,3
Gidroelektrstansiyasi	1792,9	1822,2	1871,0	1880,4	1914,9	2020,6	2225,2

Yuqorida keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasi elektr stansiyalariga o'rnatilgan quvvatlar bo'yicha natijalar ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2010-yilda 12555,4 MVt tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 17658,9 MVt ni tashkil qilmoqda. Shundan issiqlik stansiyalari (IS) va issiqlik elektr stansiyalari (IES) bo'yicha 2010-yilda 10762,5 MVt tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 17658,9 MVt tashkil qilmoqda. Hidroelektrstansiyasi bo'yicha 2010-yilda 1792,9 MVt tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 2225,2 MVt tashkil qilmoqda.

O'zbekiston – organik yoqilg'ilarning barcha turlarini ishlab chiqarish hajmidan uch barobar oshadigan katta miqdordagi qayta tiklanadigan energiya salohiyatiga ega mamlakat. O'zbekistonda quyosh energiyasidan foydalanadigan texnologiyalar katta istiqbolga ega. Chunki qayta tiklanadigan energiyaning ushbu turidan butun mamlakat hududida yil davomida foydalanish mumkin. Quyosh energiyasidan foydalanishni ko'paytirish mamlakatning, ayniqsa, borish qiyin bo'lgan va olis qishloq tumanlarida ham elektr hamda issiqlik energiyasiga bo'lgan ehtiyojni bimalol qondirib, katta hajmdagi tabiiy gazni eksport ehtiyojlari uchun yo'naltirish imkonini berishi mumkin.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishiga e'tibor berar ekanmiz, tabiiy resurslarimiz zaxirasini asrash va atrof-muhit yemirilishining oldini olish haqida ham o'ylashimiz darkor. Shu nuqtayi nazardan yangi energetika texnologiyalarini ishlab chiqish, yoqilg'i va energiyadan samarali foydalanish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda «yashil energetika»ni rivojlantirishga qaratilgan qator davlat dasturlari amalga oshirildi. Jumladan, Navoiy viloyatida ishga tushirilgan, quvvati 100 megavatt bo'lgan zamonaviy

quyosh fotoelektr stansiyasini olaylik. Nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan ushbu stansiya yiliga 252 million kilovatt soat toza elektr energiyasi ishlab chiqarishga qodir bo'lib, natijada 80 million kub metr tabiiy gazni tejash, atrof-muhitga 160 ming tonna zararli issiqxona gazi tarqalishining oldini olish imkonini beradi. Mutaxassislarning fikricha, yurtimizda ana shunday noyob quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish hisobiga jami 600 milliard kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Bu mamlakatimizda jami energiyaga bo'lgan talabdan 8 barobar ko'p degani.

Mamlakatimizda ko'p yillar davomida yangi gaz konlariga investitsiya kiritilmagani, elektr va gaz tarmoqlari modernizatsiya qilinmagani ham ayni haqiqat. Oqibatda tizimda aniq hisob-kitob yo'qligi, katta yo'qotishlar oddiy holga aylanib qolgan edi. Shu bilan birga, so'nggi olti yilda aholi soni 13 foizga, sanoat korxonlari esa 2 barobar ortib, 45 mingdan 100 mingtaga ko'paydi. Natijada elektr energiyasiga talab kamida 35 foiz oshdi va yildan yilga ko'payib bormoqda. Iqtisodiyotimiz barqaror rivojlanishi uchun energetika sohasiga 25-30 milliard dollar investitsiya kerak. Bunga faqatgina xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali erishish mumkin. Shu bois so'nggi uch yilda sohaga 8 milliard dollarlik to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jalb qilindi. Jumladan, dekabr oyi boshida Buxoro, Namangan va Xorazmda quvvati 500 megavattli yana 3 ta quyosh stansiyasini qurish bo'yicha tanlov yakunlandi. Yil boshidan quvvati 1,5 ming megavattli 7 ta elektr stansiyasi ishga tushdi. Kelgusi yilda yana 4,5 ming megavattli 11 ta yirik loyiha yakuniga yetadi. Jumladan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida barpo etiladi.

gan quyosh va shamol elektr stansiyalari hisobidan qo'shimcha 14 milliard kilovatt elektr ishlab chiqariladi. Bu orqali xonadonlarga beriladigan elektr energiyasi 50 foizga ko'payadi.

Shu bilan birga, kichik hajmdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish keskin oshiriladi. Misol uchun, Toshkent viloyatida Olmaliq, Bekobod kombinatlari va boshqa yirik korxonalar o'z ehtiyojlari uchun ming megavattli quyosh elektr stansiyalarini o'rnatib, yiliga 2,5 milliard kilovatt soat elektr ishlab chiqariladi. Bu orqali Toshkent viloyatining qariyb 30 foiz elektr iste'moli ta'minlanadi va 500 million kub metr gaz tejaladi. Respublikaning har bir tuman va shahridagi xonadon va korxonalarda jami 5-10 megavattli qayta tiklanuvchi energiya loyihalari amalga oshiriladi. Umuman, kelgusi uch yilda barcha davlat tashkilotlarida quyosh panellari va issiq suv kollektorlari o'rnatiladi. Ushbu maqsadlarda 2 milliard dollar miqdorida investitsiya jalb qilinadi. Buning hisobidan ularning 60 foiz elektr va gaz iste'moli «yashil energiya»ga o'tkaziladi. Aholi xonadonlarida esa quyosh paneli o'rnatishga ajratiladigan subsidiyalar hajmi 2 barobar ko'paytiriladi.

Xulosa va takliflar. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham yaqin istiqbolda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bilan bir qatorda «yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foiz oshirish va havoga chiqariladigan zararli gaz miqdorini 20 foiz kamaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Shu maqsadda yirik quvvatli quyosh fotoelektr va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari amalga oshirilmogda va gidroenergetikani yanada rivojlantirish davom etmogda. Bu boradagi islohotlar mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining energiya sig'imini, ishlab chiqarish tannarxini yanada kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish kabi muhim vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Energetika inson va jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi, ularning turli ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini ko'paytirish imkonini beradi. Inson sivilizatsiyasining rivojlanishi foydalanilayotgan energiya hajmi va turlari bilan har

doim chambarchas bog'liq bo'lgan. Hozirgi avlod ko'z o'ngida sodir bo'layotgan global fojia sababi shundan iboratki, XX asr davomida, ayniqsa, so'nggi 40 yil ichida odamlarning iqtisodiy rivojlanish maqsadida energiyadan foydalanish miqdori ancha oshdi. Bu esa atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmogda. Chunki iqlimning dunyo miqyosida global isib ketishi yoqilg'ining organik turlaridan foydalanadigan issiqlik elektr stansiyalarining ishlashi natijasida yuzaga keladigan, shuningdek, tobora ko'payib borayotgan ichki yonish dvigatellarining atmosferaga chiqarayotgan gazlar bilan bevosita bog'liq. Keyingi 40 yilda butun insoniyat tarixidagidan ko'ra ko'proq organik yoqilg'i qazib olindi. Joriy yuz yillik ham bundan mustasno emas.

Bugungi kunda dunyoda yoqilg'idan foydalanish miqdori yiliga 12 milliard tonna neft ekvivalentini tashkil etadi (taxminan bir kishiga 2 tonna neft ekvivalenti). Organik yoqilg'iga bo'lgan talab esa jadal sur'atlarda yanada ortib boraveradi. Neft, tabiiy gaz, ko'mir va uran kabi qazib olinadigan yoqilg'i turlari ayni paytda jahon energetika balansining negizini tashkil etadi va yaqin kelajakda ham shunday bo'lib qoladi. Vaholanki, ushbu yoqilg'ilarning resurslari ularga ishlov berish hamda foydalanilishi sababli tobora kamayib bormogda. Energiya resurslaridan hozirgi foydalanish miqdori darajasida jahonda neft zaxirasi 45-50, tabiiy gaz 70-75, toshko'mir 165-170, qo'ng'ir ko'mir 450-500 yilga va yadro yoqilg'isi esa nisbatan ko'proq yillarga yetadi.

Shuning uchun dunyo miqyosida *muqobil energiya manbalariga murojaatlar oshgan. Masalan, quyosh energiyasi.* Quyosh Yerdagi asosiy energiya manbasi hisoblanadi, chunki har yili sayyoramizga taxminan 173 PVt (yoki 173 million GVt) quyosh energiyasi tushadi, bu esa global energiyaga bo'lgan ehtiyojdan 10 ming baravar ko'proqdir. Ayniqsa, Ukraina inqirozidan keyin Yevropada quyosh elektrostansiyalari rekord darajada elektr quvvatini ishlab chiqargan. Ayni paytda Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi butun elektr manbayining 23 foizini quyosh elektrostansiyalari hisobidan olishgan. Buning evaziga 12 milliard dollar tejalgan. Bugun Prezidentimiz olib borayotgan siyosatning tub negizida ham energetik mustaqillikka erishish, aholini va tadbirkorlik subyektlarini uzluksiz elektr energiya bilan ta'minlash, xalqni rozi qilish maqsadi yotibdi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5646-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/4188798>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi «Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PF-220-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/6189000>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdagi «O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida» PQ-4249-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4257083>
4. Salimov O. va boshqalar. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari. O'quv qo'llanma. – T.: TIQXMMI. 2019. – 450 b.
5. Saidov M.S. Elektr energetika tarmog'ini tartibga solish va boshqarishning iqtisodiy xususiyatlari. // Iqtisodiyot va ta'lim. / 2023-yil, 1-son. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/950/863>
6. Anorboyev A., Qodirov D. Energiya tejamkorlik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: TIQXMMI. 2020. – 147 b.
7. Saidov M.S. Elektr energetikasi sohasining boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari. // Iqtisodiyot va ta'lim. / 2023-yil 3-son. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1129/1016>
8. Abulqosimov H. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2012. – 351 b.
9. Zokirov Sh. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish borasidagi xorij tajribasi. // Iqtisodiyot va ta'lim. 4-son. 2017. 7-12-b.
10. Xonkeldiyeva G. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korporatsiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. 08.00.13 – “Menejment” ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2018.
11. U.S. Energy Information Administration. International Energy Outlook 2016. With Projections to 2040. R. 1. [https://www.eia.gov/outlooks/ieo/pdf/0484\(2016\).pdf](https://www.eia.gov/outlooks/ieo/pdf/0484(2016).pdf)
12. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish istiqbollari. BTM, taraqqiyot dasturi, O'zbekiston. 2007-y.
13. Saidov M.S. Elektr energetika tarmog'ini boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnali. 1/2023, yanvar-fevral (№ 00063). DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a19
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-martdagi “Gidroenergetika sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-104-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/6420310>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-57-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6385716>
17. Саидов М.С. Ўзбекистонда табиий монополь ташкилотларни бошқариш ва тартибга солишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий жиҳатлари. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali. 3-son, may-iyun, 2021-yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/11_Saidov.pdf
18. Саидов М.С. Глобализация шароитида табиий монополь ташкилотлар фаолиятини давлат томонидан тартибга солишнинг институционал хусусиятлари. // «Таълим-тарбия жараёнига инновацион ёндашувлар, муаммо ва ечимлар» мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси. – Т., 2022 й. 197-203-б. <https://zenodo.org/records/6585036>
19. Саидов М.С. Табиий монополь ташкилотларни бошқаришнинг назарий-услубий жиҳатлари. // Иқтисодиёт ва таълим. 2021 йил, 2-сон. <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3104/816>
20. Саидов М.С. Табиий монополь ташкилотларни бошқаришда рақобат муҳитини ривожлантириш. // Иқтисодиёт ва таълим. 2021 йил, 4-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/125/121>
21. Саидов М.С. Табиий монополияларни бошқариш ва тартибга солишнинг хориж тажрибаси. // Иқтисодиёт ва таълим. 2021 йил, 5-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/209/256>



OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION SALOHİYATNI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xamrayev Nodirbek Ravshanovich
Qarshi davlat universiteti

 https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a35

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada oziq-ovqat korxonalarida innovatsion salohiyatni oshirish mexanizmini takomillashtirish, oziq-ovqat korxonalarini boshqarish mexanizmini yaxshilamasdan, ularning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirmay, tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va tashqi manbalardan investitsiyalar kiritishni ko'paytirish masalalari tadqiq qilingan. Bundan tashqari qayta ishlash sanoati mahsulotlari sifatini oshirish nafaqat xorijiy investitsiyalarning kirishini rag'batlantirish, balki butun korxonada faoliyatini zamon talablariga mos holda modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, oziq-ovqat bozori, oziq-ovqat turlari, innovatsion salohiyat, bozor elementlari, boshqaruv strategiyasi, raqobat ustunligi, bozor imkoniyatlari, iqtisodiy mexanizm, tashkiliy mexanizm, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik subyekti, tadbirkorlik qobiliyati, tadbirkorlik infratuzilmasi.